

Q. MO'YDINOV, R. IKRAMOV

TILSHUNOSLIK ASOSLARI



TOSHKENT – 2024

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Q.MO'YDINOV, R.IKRAMOV

**TILSHUNOSLIK
ASOSLARI**

Toshkent – 2024

UO‘K 81-2
KBK 81
M 96

Mazkur darslik oliy ta‘lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishidagi (60111400 - O‘zbek tili va adabiyoti) talabalar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda Tilshunoslik asoslari fanining asosiy masalalari: tilning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, til va jamiyat, til taraqqiyotini tizim sifati(sistema)da o‘rganilishi, tilshunoslik fanining boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi, tilshunoslik bo‘limlari, dunyo tillarining tasnifi kabi masalalar yuzasidan nazariy ma‘lumotlar beriladi. Shuningdek, talabalarning til ta‘limiga munosabatlarini yanada oshirish, kreativ fikrlashlarini kengaytirish maqsadida amaliy mashg‘ulotlar, mustaqil ta‘lim soatlari mavzulari doirasida qo‘shimcha savol va topshiriqlar va test savollari o‘rin olgan.

Darslik oliy ta‘lim muassasalari o‘zbek tili va adabiyoti ta‘lim yo‘nalishi talabalari hamda tilshunoslik bilan qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan.

Mas‘ul muharrir:

R.Rasulov – filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

A.Shofqorov – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

M. Hakimova – filologiya fanlari doktori, professor v.b.

UO‘K 81-2
KBK 81

Ushbu darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 7 maydagi 149-sonli buyrug‘i bilan nashrga ruxsat berilgan.

ISBN 978-9910-751-09-7

KIRISH

Jahonda yuz berayotgan globallashuv jarayoni jamiyat taraqqiyotida yangicha yondashuvlar, turlicha fikr va g‘oyalar ko‘rinishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bu o‘z navbatida boshqa fanlar qatorida tilshunoslikka ham ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Shuni e‘tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qabul qilgan qator qaror va farmonlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar milliy tilimiz bo‘lgan davlat tilini rivojlantirishga qaratilgan. Jumladan, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-sonli “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari ona tilimiz – o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi rivojiga qaratilgani bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida Davlat tilini rivojlantirish departamentining tashkil etilishi olamshumul voqea bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ona tilimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, o‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosida obro‘-e‘tiborini yanada oshirish, davlat tilining amal qilinishi bilan bog‘liq muammolarni aniqlash va bartaraf etish, milliy tilimizni takomillashtirish bo‘yicha me‘yoriy-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish va boshqa ishlar yuzasidan Davlat tilini rivojlantirish departamenti qisqa muddat ichida keng ko‘lamli vazifalarni amalga oshirdi.

Mamlakatimizda fundamental fanlar qatorida ijtimoiy hayotning barcha sohalarida davlat tili – o‘zbek tilini ilmiy asosda har tomonlama o‘rganish, tilimizning qo‘llanilish doirasini kengaytirish, ilmiy adabiyotlar, imlo, tarjima, qiyosiy lug‘atlar nashr etish masalasiga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Mazkur darslikni ham mana shu yo‘nalishdagi amaliy ishlardan biri deyish mumkin. Darslikni tayyorlashda M.Irisqulovning “Tilshunoslikka kirish”(1992-yil; 2009-yil ikkinchi nashr), A.A.Abduazizovning “Tilshunoslik nazariyasiga kirish”, A.Nurmonov, B.Yo‘ldoshevlarning “Tilshunoslik va tabiiy fanlar”, A.Nurmonovning “Tanlangan asarlar”, M.Abuzalova, D.Yo‘ldoshevalarning “Tilshunoslikka kirish”, R.Rasulovning “Umumiy tilshunoslik (OTM uchun darslik)”, N.Mahmudovning “Tilimizning tilla sandig‘i”, M.Mirtojiyevning “O‘zbek tili fonetikasi”, I.Yo‘ldoshev, S.Muhamedova, Z.Xolmonova, R.Majidova,

Sh.Sultonovalarning "Mutaxassislikka kirish" (Tilshunoslikka kirish), A.Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" kitoblaridan ijodiy foydalanildi. Mualliflarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

TILSHUNOSLIK ASOSLARI FANINING MAQSADI, VAZIFASI VA AHAMIYATI

Reja:

1. Tilshunoslik asoslari fanining o'rganish sohasi va predmeti.
2. Tilshunoslik asoslari fanining maqsadi va vazifasi.
3. Tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasi.

Tayanch so'z va iboralar: til, tilshunoslik, lingvistika, til va jamiyat, nazariy tilshunoslik, amaliy tilshunoslik.

Tilshunoslik til haqidagi mustaqil fan bo'lib, tilning paydo bo'lishi va rivojlanishi, tarixiy taraqqiyot jarayonlari, til va tafakkur, til va jamiyat, tilning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyati, til tizimi va tuzilishi, uning sathlari, til birliklari va ularning nutqda ifodalanishi, tilshunoslik fanining boshqa tabiiy va ijtimoiy fanlar bilan aloqasi, dunyo tillarining tasnifi kabi muhim masalalarni o'rganadi.

Tilshunoslik asoslari fanining predmetini aniqlash, birinchidan, ma'lum darajada tilning mohiyatini qanday tushunishga bog'liq bo'lsa, ikkinchidan, til tadqiqi hamda tilshunoslikning boshqa fanlar orasida tutgan o'rniga ham bog'liq. Tilshunoslik asoslari fanining predmeti, tilning tabiati va mohiyatini turlicha tushunish fan tarixi taraqqiyotida turli ilmiy maktab va oqimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan: naturalizm, psixologizm, strukturalizm va hokazo¹. Shunga ko'ra tilshunoslik asoslari fanining predmeti tushunchasi rivojlanib, o'zgarib, boyib turadigan ijtimoiy hodisa deyishimiz mumkin. Bu o'rinda tilning nihoyat darajada murakkab va ko'p qirrali hodisa ekanligini e'tiborga olish muhim. Bu esa o'z navbatida tilning ijtimoiy mohiyatini mavjud ilmiy xulosalarga asoslanib o'rganishni taqozo qiladi. Insoniyat tili faqat tilshunoslik emas, balki yana bir qator fanlar tomonidan o'rganiladigan murakkab obyekt bo'lib, har bir fanning tilga bergan ta'rifi fan xususiyatidan kelib chiqib bir-biridan farqlanadi. Hattoki, tilshunoslik fanining o'zida ham tilni ta'riflashda yagona fikr yo'q. Tilning ta'rifi tilshunoslik fani tarixida eng muhim masalalardan bo'lib, turlicha talqin qilingan hamda ilmiy maktablar va oqimlar orasida bahslarga sabab bo'lgan. Tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda til ikkita bir-biriga zid dunyoqarash – idealistik va materialistik nuqtai nazardan ta'riflangan.

¹ Qarang: Содиков А., Абдуазизов А., Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1981

Ongni birlamchi, materiyani ikkilamchi deb biluvchi idealistik yo'nalishdagi olimlar tilga quyidagicha ta'rif berishadi:

“Til tafakkurni ifoda qiluvchi ishoralar majmuidir” (F.de Sossyur).

“Til odam ongining ishtirokisiz, uning tashqi dunyoga nisbatan bo'lgan mexanik harakatidir”. (L.Blumfeld).

“Til fikrni ifoda qilishga mo'ljallangan talaffuz qilinadigan, chegaralangan tovushlar majmuidir” (B. Grosse).

Bu fikrlar bir-birini to'ldirsa ham, tilning ijtimoiy mohiyatini ochib bera olmaganligi sababli ular tilning to'liq va to'g'ri ta'rifi bo'la olmaydi².

Olimlar tilning kishilik jamiyatida tutgan o'rni naqadar muhim ekanligini ko'rsatib, til insoniyatning eng muhim aloqa vositasi ekanligini isbotlashgan. Shunday bo'lsa ham, tilni yagona aloqa vositasi deb aytish ham mutlaqo to'g'ri bo'lmaydi. Chunki tildan boshqa aloqa vositalari ham mavjud. Masalan, imo-ishoralar, svetofor chiroqlari, ijtimoiy tarmoqlarda faol qo'llanayotgan smayliklar (ayrim o'rinlarda “his tuyg'u belgilari” deb ham yuritilar ekan). Lekin bu vositalar tilga nisbatan ikkinchi darajali bo'lib, nafaol, yordamchi vositalar deyish mumkin. Boshqa aloqa vositalarining ishlatilish ko'lamini chegaralangan. Masalan, ko'cha harakati qoidalarini tartibga soluvchi belgilar asosan haydovchilarga xizmat qiladi. Til va boshqa aloqa vositalari orasida o'xshashlik va farqlar mavjud. Bu vositalarning bir-biri bilan birlashtiradigan xususiyatlari quyidagilar:

- fikr hissiyotlarni ifodalaydi;
- ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat tomonidan yaratiladi va unga xizmat qiladi;
- moddiy material bo'lib, tovush (chizmalar) yordamida ifodalandi;
- obyektiv borliqni aks ettiradi.

Ular orasidagi farqlar esa quyidagilar:

- til fikr, tushuncha va hissiyotlarni ifoda qiluvchi vosita;
- til faqat ma'lumot, axborotni bir shaxsdan boshqasiga quruq yetkazmasdan, balki so'zlovchining bu ma'lumotga va ma'lumot orqali tinglovchiga bo'lgan munosabatini, uning xohish-istagini, ruhiy holatini ham ifodalaydi;
- tildan boshqa hamma signallar sun'iy bo'lib, odamlar tomonidan

² Qarang: Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992, 6-бет.

yaratiladi va sharoitga qarab o'zgartirilishi mumkin. Sun'iy vositalarning yaratilishida odamlarning hammasi emas, balki mazkur (muayyan bir) sohani yaxshi tushunadigan va biladigan kichik bir guruh ishtirok etadi. Til esa odamlarning istak-xohishlariga bog'liq bo'lmaydi, uni jamiyat a'zolari o'z istak, ixtiyorlari bilan o'zgartira olmaydilar. Til asrlar davomida jamiyatga xizmat qiladi, insonlarning ehtiyojlarini qondiradi, garchand til o'zgaruvchan hodisa bo'lsa-da, u faqat o'zining ichki obyektiv omillarilari asosida rivojlanadi. Shuni ham qayd etish lozimki, jamiyat bo'lmasa, til bo'lmaydi. Jamiyat rivojlansa, til ham boyiydi. Jamiyat taraqqiy etsa, til ham takomillashib boradi. Agar jamiyat tanazzulga uchrasa, til ham inqirozga yuz tutadi. Demak, til va jamiyat doimo bir-birini taqozo etadigan, biri ikkinchisiz yashay olmaydigan ijtimoiy hodisa. Boshqa signal sistemalari tilga nisbatan ikkilamchi, unga qo'shimcha vosita sifatida namoyon bo'ladi, tilni to'ldiradi.

Til haqidagi nazariyani yaratishda tilni qanday tushunishning ahamiyati katta. Tilshunoslikda mavjud bo'lgan har bir nazariya, avvalo, tilni qanday tushunishga asoslanadi. Tilshunoslik asoslari fanining obyeksi, predmeti va ilmiy o'rganish metodlari kabi masalalar ma'lum darajada tilni qanday tushunishga bog'liq.

XX asrdan boshlab tilshunoslik asoslari fanining predmetini aniqlashda yangi davr boshlandi. Mashhur olim F.de Sossyur (1857-1913) nazariyasi ta'sirida tilshunoslik fanining predmeti masalasi ham yangicha tus oldi. F.de Sossyurning fandagi asosiy xizmati shundan iboratki, u birinchi qatori tilning murakkab hodisa ekanligini anglagan holda, yangi mukammal va aniq shakllangan umumiy tilshunoslik nazariyasini yaratib berdi. F.de Sossyurning ilmiy g'oyasi tilning murakkab, ziddiyatlarga boy, ko'p tomonlama hodisa ekanligiga asoslangan. F.de Sossyurning fikricha til kishilik jamiyatida bajaradigan funksiyasiga ko'ra aloqa quroli, fikrni ifodalaydigan ijtimoiy tabiati jihatidan qaraganda, til madaniy-tarixiy va ijtimoiy hodisadir. Ichki tuzilishiga ko'ra til sof belgi-ishora (znak)lar sistemasidir³.

XIX asrning birinchi yarmida boshqa sohalar singari tilshunoslik sohasida ham juda katta yutuqlarga erishildi. Xususan, bu davrda tilshunoslikda qiyosiy-tarixiy metod shakllandi va unga hamohang tarzda til haqidagi fan ham qiyosiy-tarixiy tilshunoslik fani deb yuritila boshlandi. Bu davrda yevropa tillarining sanskrit (qadimgi hind) tili bilan uzviy bog'lanishi borligini sezib, bu tillarning o'zaro aloqadorlik,

³ Qarang: Содиков А, Абдуазизов А, Ирискулов М. Тилшуносликка кириш. – Тошкент. Ўқитувчи, 1981, 6-бет.